

MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIY SALOHIYATNI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Yusubov In‘omjon Ikram o‘g‘li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi, PhD, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqada raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari va asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqada raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan xulosalar va takliflar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqada, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiyot, salohiyat, iqtisodiy salohiyat.

Аннотация

В статье рассматриваются необходимость, существующие возможности, особенности и основные направления повышения цифрового экономического потенциала региона. Представлены выводы и предложения по повышению цифрового экономического потенциала региона.

Ключевые слова: регион, цифровая экономика, экономика, потенциал, экономический потенциал.

Abstract

This article discusses the need, existing opportunities, specific features and main directions of increasing the digital economic potential in the region. It also presents conclusions and proposals for increasing the digital economic potential in the region.

Keywords: region, digital economy, economy, potential, economic potential.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot har bir mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotida strategik ahamiyat kasb etadi. Bu borada jahon miqyosida raqamli texnologiyalar iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga kirib kelgan. Ular samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va yangi bozor imkoniyatlarini yaratishning muhim omiliga aylanmoqda. Mamlakatimizda ham mintaqaviy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirish mintaqalarda axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli xizmatlar hajmini kengaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu jarayon mintaqaviy iqtisodiyot samaradorligini oshirish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholining raqamli kompetensiyasini yuksaltirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirish hamda ularni mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha amalga oshirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot an‘anaviy iqtisodiyotga qo‘shimcha qatlam deb hisoblanadi [1]. Ushbu qatlam raqamli iqtisodiyotni samarali shakllanib, o‘ziga xos salohiyatga egaligini ifodalaydi. Yana bir tadqiqotlarga ko‘ra, meta-ma‘lumotlarni

qo'llash sog'liq saqlash, fan, ishlab chiqarish, foydali qazilmalar qazib chiqarish va davlat boshqaruvi masalalarida ulkan salohiyatga egaligini tasdiqlaydi [2]. Bunda raqamli iqtisodiy salohiyatning natijasi sifatida "Big Data" dasturidan foydalanish uchun boshlang'ich shart-sharoitlar ma'lumotlarning elektron shaklda mavjudligini asoslaydi.

Boshqa tadqiqotlarga ko'ra, raqamli iqtisodiyot taraqqiyotida sun'iy intellektni insonparvarlashtirish bo'yicha yangi-mezo darajadagi ko'rinish taklif qilinadi. Ya'ni, raqamli iqtisodiy salohiyatga yangi qarash mintaqada sun'iy intellektni insonparvarlashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi hamda mintaqadagi hayot sifati uchun sun'iy intellektni insonparvarlashtirish oqibatlarini eng aniq aniqlash va to'g'ri o'lchashga asoslanadi [3]. Ushbu jarayonni mintaqada darajasida davlat boshqaruvini nazarda tutadigan sun'iy intellektni insonparvarlashtirishga yangi taklif qilingan yondashuv bevosita ushbu jarayonni tezlashtirishga imkon beradi.

Yana bir tadqiqot shuni asoslaydiki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiy salohiyat namunasi sifatida elektron hukumatning ushbu qiyinchiliklarini yengib o'tishdagi muvaffaqiyat milliy davlat idoralarining faoliyati va yetakchilik salohiyatiga bog'liqdir. Chunki, mamlakatdagi boshqaruv tuzilmasi markazlashtirilgan xususiyatga ega bo'lib, ular turli aralashuvlarni amalga oshirishda yetakchilikni o'z zimmlariga olishlari kerak [4].

Yana boshqa tadqiqotlarning maqsadi mintaqaviy iqtisodiyot va jamiyatni raqamlashtirish jarayonini o'rganish, raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirish va ularning rivojlanishidagi nomuvofiqlikni asosiy sabablarini aniqlash va ularning raqamli tengsizligini kamaytirish uchun mintaqaviy boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga qaratiladi. Ushbu tadqiqot 2013-yildan 2020-yilgacha bo'lgan statistik ma'lumotlarga asoslanib, Rossiyadagi mintaqalarning raqamli rivojlanishini tahlil qiladi. Ya'ni, ushbu tadqiqot mintaqaviy sharoitda innovatsion salohiyatni ko'rib chiqish, tashkilotlar raqamli transformatsiyasi va ularning raqamli ekotizimlarga jalb qilinishini kuzatish, uy xo'jaliklarida AKTga ulanish va shaxsiy kompyuterlardan foydalanish nuqtai nazaridan ularning raqamli savodxonligi va malakalaridan kelib chiqqan holda o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi [5]. Unga asosan, mintaqalarning raqamli salohiyatini rivojlantirish samaradorligini baholash va Rossiyada raqamli transformatsiyani rag'batlantirishda ishtirok etadigan ilmiy jamoatchilik menejerlari va a'zolari uchun foydali bo'lishi mumkin bo'ladi.

Boshqa bir tadqiqotlarning yo'nalishi mintaqaning raqamli iqtisodiy salohiyatni rivojlantirishni tahlil qilish va undan mintaqada aholisining hayot sifatini boshqarish uchun foydalanish istiqbollari baholashga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot mintaqaning raqamli potentsiali asoslari va baholash amaliyoti hamda uning tegishli toifalar bilan muhim farqlanishini ifodalaydi. Xususan, bu tadqiqotda Rossiya Federatsiyasi va uning subyektlarini raqamlashtirish darajasi to'g'risida empirik ma'lumotlar tahlili o'tkazilganligini yoritadi [6]. Aniqroq qilib aytganda, mintaqada raqamli salohiyatidan hayot sifatini boshqarishda foydalanishning ijobiy va salbiy

tashqi tomonlari ro'yxati shakllantirildi. Ammo, unda joriy milliy loyihalar va dasturlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, tarmoqlar raqamli transformatsiyasining aholi hayot sifatiga salbiy ta'siri hisobga olinmaydi.

Boshqa xil tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyotni iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasi va raqamli axborot kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida o'rganish natijalari keltiriladi [7]. Unga ko'ra, barqaror iqtisodiy o'sishni shakllantirish va raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish va raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirishdagi muammo sifatida iqtisodiyotni raqamlashtirish muammolari bo'lib hisoblanadi. Bu raqamli iqtisodiy salohiyatning yo'nalishlari sifatida yangi raqamli texnologiyalar va innovatsion biznes modellari jamiyat iqtisodiy hayotining barcha sohalariga kirib boradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo'llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda mintaqaning raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, modellashtirish va prognozlashtirish usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot mintaqaning innovatsion salohiyatini faollashtiradi. Bunda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlovchi korxonalar yangi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olganda, har bir hududda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish va sun'iy intellekt, "Big Data" hamda "blokcheyn" texnologiyalarini joriy etish mintaqaning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, mintaqada raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirishda inson kapitali hal qiluvchi o'rin tutadi. Axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yoshlar o'rtasida IT-ko'nikmalarni rivojlantirish va "raqamli savodxonlik" dasturlarini amalga oshirish raqamli iqtisodiyot uchun zarur resurs bazasini yaratadi. Bu esa mehnat bozorida yangi kasblar, masalan, dasturchi, ma'lumotlar tahlilchisi, raqamli marketing mutaxassisi va kiberxavfsizlik eksperti kabi yo'nalishlar kengayishiga olib keladi.

Shuningdek, mintaqaviy biznes tuzilmalarda raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirish uchun davlat tomonidan rag'batlantiruvchi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq imtiyozlari, raqamli loyihalarni grantlar orqali qo'llab-quvvatlash va startap ekotizimlarini rivojlantirish bevosita samarali natijalar beradigan omillar qatoriga kiradi. Xususan, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini raqamli xizmatlardan foydalanishga o'rgatish, ularning elektron to'lov tizimlari va onlayn savdo platformalarida faol ishtirokini ta'minlash mintaqaning iqtisodiy muhitini jonlantiradi.

Mintaqalarda raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirishning yana bir muhim jihati bo‘lib raqamli boshqaruv tamoyillarini joriy etishdir. Unga asosan, raqamli boshqaruv orqali iqtisodiy jarayonlar tezkor, shaffof va natijador bo‘ladi. Masalan, elektron davlat xizmatlari orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining vaqt va xarajatlari ma’lum darajada qisqaradi. Unga tegishli bo‘lgan raqamli nazorat tizimlari soliq, bojxona va moliya sohalarida shaffoflikni ta’minlaydi.

Fikrimizcha, mintaqaning raqamli iqtisodiy salohiyatini oshirish uning optimal funksiyasini yaratish bilan belgilanadi. Buning uchun uning umumiy matematik modeli yaratiladi. Jumladan, mintaqaning raqamli iqtisodiy salohiyatini quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$R = f(I, K, T, D, E, H)$$

bu yerda,

R — raqamli iqtisodiy salohiyat. Bu ko‘rsatkich mintaqaning raqamli iqtisodiyotdan foydalana olish darajasini ifodalaydi.

I — raqamli infratuzilma indeksi. Bu ko‘rsatkich internet tarmog‘i sifati, keng polosali aloqa va IT-infratuzilmasi holatini aks ettiradi.

K — inson kapitali ko‘rsatkichi. Ushbu ko‘rsatkich IT sohasida bilim, malaka va raqamli savodxonlik darajasini ifodalaydi.

T — texnologik rivojlanish koeffitsiyenti. Bu ko‘rsatkich innovatsion texnologiyalar, dasturiy yechimlar va avtomatlashtirish darajasini aks ettiradi.

D — davlat siyosati ko‘rsatkichi. Bu ko‘rsatkich raqamli strategiyalar, huquqiy baza va e-hukumat tizimlari darajasini bildiradi.

E — investitsion muhit indeksi. Ushbu ko‘rsatkich raqamli startaplar va IT-loyihalar uchun investitsiyalar hajmini ifodalaydi.

H — hududiy omillar. Bu esa mintaqaning iqtisodiy, demografik va ijtimoiy imkoniyatlarini ifodalaydi.

Mazkur mintaqaning raqamli iqtisodiy salohiyatini oshirishning matematik funksiyasi har bir omilning iqtisodiy o‘shishga ta’sirini aniqlash, raqamli siyosat samaradorligini baholash, viloyatlar o‘rtasida taqqoslama tahlil o‘tkazish va strategik qarorlar qabul qilish uchun raqamli prognozlar yaratish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Darhaqiqat, mintaqada raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirish quyidagi yo‘nalishlarga ega bo‘lib, bu borada uning asosiy maqsadi, mexanizmlari va kutilayotgan natijalari alohida ajratiladi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqada raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirish yo‘nalishlari¹

№	Strategik yo‘nalishlar	Asosiy maqsad	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natijalar
1	Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish	Internet tarmog‘ining qamrovini kengaytirish va raqamli xizmatlarga nisbatan kirish imkonini oshirish	- 5G texnologiyasini joriy etish; - optik tolali tarmoqlarni kengaytirish; - sun‘iy yo‘ldosh aloqa tizimini modernizatsiya qilish	Tezkor, barqaror internet tarmog‘i kengayadi va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi oshadi

¹ Muallif ishlanmasi

№	Strategik yoʻnalishlar	Asosiy maqsad	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natijalar
2	Raqamli transformatsiya va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish	Mintaqalarda raqamli biznes muhitini rivojlantirish	- IT-parklar, texnoparklar va startap inkubatorlarini yaratish; - raqamli platformalar va ERP tizimlarini joriy etish	Innovatsion faoliyat samarasi oshadi va yangi raqamli korxonalar paydo boʻladi
3	Raqamli savodxonlik va inson kapitalini rivojlantirish	Aholi, ayniqsa yoshlar oʻrtasida raqamli koʻnikmalarni shakllantirish	- IT taʼlim markazlarini ochish; - onlayn oʻquv kurslarini joriy etish; - dasturlash va kiberxavfsizlik boʻyicha treninglar oʻtkazish	Malakali kadrlar soni ortadi va mehnat bozorida raqamli kasblar ulushi kengayadi
4	Raqamli davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish	Davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va shaffoflikni oshirish	- “Bir darcha” tizimini kengaytirish; - elektron hujjat aylanishini toʻliq joriy etish; - elektron imzo va identifikatsiya tizimini kuchaytirish	Byurokratiya kamayadi va davlat xizmatlaridan foydalanish tezlashadi
5	Raqamli iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash	Kibermuhofaza tizimini rivojlantirish va maʼlumotlar maxfiylikni taʼminlash	- kiberxavfsizlik markazlarini tashkil etish; - maʼlumotlar markazlarini modernizatsiya qilish; - xavfsizlik auditi tizimini joriy etish	Maʼlumotlar oqimi xavfsizligi taʼminlanadi va raqamli tizimlarga ishonch oshadi
6	Raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash	Kichik biznes va startaplarga raqamli imkoniyatlardan foydalanish sharoitini yaratish	- elektron toʻlov tizimlarini kengaytirish; - onlayn savdo platformalarini qoʻllab-quvvatlash; - soliq imtiyozlari joriy etish	Raqamli biznes hajmi ortadi va yangi ish oʻrinlari yaratiladi
7	“Aqlli shahar” va “Aqlli mintaqa” loyihalarini joriy qilish	Hududlarda raqamli boshqaruv tizimini shakllantirish	- IoT tizimlarini joriy etish; - smart-transport, smart-energiya va smart-taʼlim tizimlarini yaratish	Infratuzilma samaradorligi ortadi, yashash sifati yaxshilanadi
8	Mahalliy innovatsion hamkorlik va xalqaro integratsiyani kengaytirish	Mintaqalararo hamkorlikni kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish	- raqamli inkubatorlar orqali xalqaro IT loyihalarini jalb etish; - hamkor davlatlar bilan “Digital Partnership” dasturlarini yoʻlga qoʻyish	Mintaqaning raqamli imiji ortadi va xorijiy kapital kirib keladi

Ushbu 1-jadvalga koʻra, undagi materiallardan strategik tahlil uchun moʻljallangan boʻlib, uni mintaqaviy raqamli rivojlanish dasturi uchun asos sifatida qoʻllaniladi. Keltirilgan har bir yoʻnalishning natijasi raqamli iqtisodiy salohiyat indeksini oshirishga qaratilgan.

Fikrimizcha, hududlarda raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirishning istiqbolli yoʻnalishlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- axborot infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yaʼni yuqori tezlikdagi internet tarmogʻini kengaytirish va sunʼiy yoʻldosh texnologiyalarini joriy etish;

- raqamli innovatsiyalarni rivojlantirish, yaʼni IT-parklari, texnoparklar va inkubatsiya markazlarini tashkil etish;

- raqamli savodxonlikni oshirish, yaʼni aholining barcha qatlamlarini raqamli texnologiyalarni qoʻllashga oʻrgatish;

- raqamli davlat xizmatlarini kengaytirish, ya'ni "bir darcha" tizimi, elektron ariza va onlayn murojaatlar tizimini takomillashtirish;

- xavfsizlikni ta'minlash, ya'ni kibermuhofaza tizimlarini mustahkamlash va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini yaratish.

Mazkur yo'nalishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mintaqalarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi, mahalliy byudjet daromadlarini oshiradi va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi. Eng muhimi esa raqamli iqtisodiyot mintaqalarda samarali boshqaruv, shaffoflik va ochiqlikni ta'minlab, inson kapitaliga asoslangan yangi iqtisodiy modelni shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqaviy raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirish faqat texnologik jarayon emas, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy va boshqaruv tizimlarining chuqur modernizatsiyasini aks ettiradi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi orqali har bir mintaqqa o'zining iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va xalqaro investitsiyalar oqimini jalb etish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, raqamli iqtisodiy salohiyatni oshirishni strategik ustuvor yo'nalish sifatida ko'rish zamonaviy mintaqaviy siyosatning eng muhim vazifasiga aylanib boradi. Shundan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni mintaqaning iqtisodiy o'sishini tezlashtirish uchun amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- raqamli infratuzilmani keng va samarali rivojlantirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz avtomatlashtirish;
- raqamli ta'lim dasturlarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish;
- yuqori texnologiyalar va kompyuterlashtirishdan foydalanish samaradorligini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Askarov N.I. Raqamli iqtisodiyotning ahamiyati va rivojlanish yo'nalishlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, №1, yanvar-fevral, 2021, №00051. — 290 b.

2. Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Raqamli iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. — T., 2020. — 227 b.

3. Ekimova K.V. Development of the potential of the digital economy of Russian regions through artificial intelligence humanisation. Humanit Soc Sci Commun 10, 943 (2023). <https://doi.org/10.1057/s41599-023-02444-w>

4. Kuldosheva G. (2021). Challenges and Opportunities of Digital Transformation in the Public Sector in Transition Economies: Examination of the Case of Uzbekistan. ADBI Working Paper 1248. Tokyo: Asian Development Bank Institute. — p. 30. Available: <https://www.adb.org/publications/challenges-opportunities-digital-transformation-uzbekistan>

5. Glebova I., Berman S., Khafizova L., Biktimirova A., Alhasov Z. Digital Divide of Regions: Possible Growth Points for Their Digital Maturity. // International Journal of Sustainable Development and Planning, Vol.18, No.5, May, 2023. — pp. 1457-1465.

6. Мухачева А.В. Развитие цифрового потенциала региона в управлении качеством жизни населения. / А.В.Мухачева, Е.Ф.Никитская // Экономика, предпринимательство и право, 2024, Т.14, №3. — с. 859-884. – DOI 10.18334/epp.14.3.120602. <https://1economic.ru/lib/120602>
7. <https://auspublishers.com.au/en/nauka/monography/2406/view>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**